



**TIJORAT BANKINING KREDIT PORTFELI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASIDA TASHKIL ETILISHI**

Ilmiy rahbar:**Sharipova Nigina Jorakulovna**
Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti o'qituvchisi
Alamov Dostonbek Suxrobovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Bank ishi va audit yo'nalishi 221-guruh talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda tijorat bankining kredit portfelini va kredit risklarini boshqarish muommolari banklarning kredit faoliyatini o'rganishda asosiy yo'nalishlardan biridir. Ushbu maqolada tijorat banklarining kredit portfeli tushunchasining mazmun-mohiyati tahlili va bank kredit portfelini samarali boshqarishga qaratilgan takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, kredit portfeli, muammoli kredit, kredit portfeli sifati, samaradorlik.

Tijorat banki – tijorat asosida bank faoliyati, ya'ni mablag'larni jalg qilish va kreditlarni taqdim etish, bank hisobvaraqlarini ochish va uni yuritish hamda to'lovlarni o'tkazish kabi amaliyotlarni amalgalashuvchi kredit tashkilotidir. Tijorat banklari – bo'sh pulga (jamg'armaga) ega va pulga muhtoj bo'lganlar o'rtaqidagi vositachilardan biri hisoblanadi. Tijorat banklari iqtisodiyotning "qon tomir tizimi" bo'lib, aholi va biznesning to'planib qolgan jamg'armalarini taqsimlash orqali iqtisodiyotni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi. Bu vositachilik iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan "yoqilg'i" bilan ta'minlaydigan omilidir. Vositachi sifatida tijorat banklari pul mablag'laridan foydalanganligi uchun foiz to'lash sharti bilan omonatlarni jalg qiladilar va ularni aholi va tadbirkorlarga kreditlar va investitsiyalar shaklida foiz evaziga taqdim etadilar. Keriditning tijorat, bank, davlat, iste'mol, xalqaro, ipoteka va boshqa shakllari bor. Tijorat Kreditlari — bir xo'jalik yurituvchi sub'yekt tomonidan beriladi va, odatda, veksel bilan rasmiylashtiriladi. Bank Kreditlari — jismoniy va yuridik shaxslarga pul shaklida banklar tomonidan beriladi. Bank kreditining forseyting, faktoring, haridorga qarz berish kabi ko'rinishlari bor. Davlat Kreditlari — davlatning qarz beruvchi va qarz oluvchi sifatida ishtirotini nazarda tutadi. Davlat qarz beruvchi sifatida bank tizimi orqali byudjetdan tarmoq, hudud, korxonalarni K. ajratib moliyalashtiradi. Qarz oluvchi sifatida aholiga davlat zayomlari, obligatsiyalarini sotish bilan jismoniy yoki yuridik shaxslardan qarz oladi, natijada ichki davlat qarzi, chet davlatlardan olingan K.lar hisobidan tashqi davlat qarzi paydo bo'ladi. Iste'mol reditlari — aholiga iste'mol tovarlari, xizmatlarni nasiyaga sotish, uy-joy qurilishi harajatlari uchun, lombardlardagi mulk garovi hisobiga, o'zaro yordam cassasi qarzlarini va boshqa ko'rinishlarda beriladi. Xalqaro Kredit — muddatli, qaytimli va foiz to'lash shartlari bilan bir mamlakatdagi kreditor tomonidan ikkinchi mamlakatdagi qarz oluvchiga pul yoki tovar shaklida beriladigan qarz, shuningdek, chet el obligatsiyalari, chet el korxonalari aksiyalari va b, qimmatli qog'ozlariga fonda olish maqsadlarida kapital qo'yish.

Ilmiy adabiyotlarda muammoli kreditlar bo'yicha turli xilma-xil ta'riflar berilgan. Ayrim adabiyotlarda, muammoli kredit deganda ob'ekti, sub'ekti va ta'minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo'lgan kredit tushunilsa[8], ayrim adabiyotlarda muammoli kreditlar deganda, —qarz oluvchi bir yoki bir necha to'lovlarni amalga oshirmaganligi yoki kredit ta'minoti qiymatining pasayishi kreditni muammoli kreditlar turkumiga o'tishini anglatadi deya ta'rif berilgan. Tijorat banklarida muddati o'tgan kreditlar bilan ishslash va ularning portfelini boshqarish samaradorligini oshirish masalalari bir qator xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan va kredit portfeli tushunchasini uning mohiyatiga berilgan ta'riflarda ifodalangan. Masalan amerikalik iqtisodchilar Kris J. Barlton, Diana Mak Noton kredit portfeli - bu kreditlarni turkumlashni o'z ichiga oladi deb ta'riflashadi. O'z o'rnida, bank



sektorining ichki va tashqi ish faoliyatlari ITlarning rivojlanishi bilan yanada rivojlanib bormoqda va bu eng katta ta'sir qilgan soha sifatida bank tizimini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, N. Sokolinskaya —kredit portfeli qisqa va uzoq muddatli kreditlar yig'indisidan iboratl deb ta'riflaydi va muammoli kreditlarni boshqarish masalasiga alohida to'xtalib o'tadi. Bu ta'rifda asosiy e'tibor kreditning muddatiga qaratilgan bu holat kredit holatini va mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Chunki, bank tomonidan berilgan kreditlarning muddatini belgilab qo'yilishi va unga rioya qilinishi faqat kredit klassifikatsiyasi sifatini aniqlashda muhim omil bo'lishi mumkin. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham bu borada qator izlanishlarni olib borishgan, xususan, Sh.Z.Abdullaevning fikriga ko'ra, banklarning muddati o'tgan kreditlari – bu turli xil kredit risklariga asoslangan muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlarning qaytarilishida yo'l qo'yilgan kamchiliklar bo'lib, asta sekin umumiyl bank aktivlarining standart holatiga tasir qiladi deb aytadi. Uning turli shakllarida kreditorning belgilangan qarzni kech to'lashi yoki to'liq to'lamasligi va bunda vaqt omilining suistemol qilinishi biz yuqorida so'z yuritayotgan masala obyekti bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, banklar faoliyatida kredit operatsiyalarini asosiy o'rinni egallagani uchun ularning kredit paketlarini to'g'ri tashkil qilish banklarning samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kredit operatsiyalarini olib borishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar banklar daromadining kamayishiga, ba'zi hollarda ularning sinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, banklarning kredit portfeli va uning sifatini nazorat qilib borish tijorat banklari samarali faoliyatining garovidir⁸. Yuqorida o'rganilgan holatlarga asoslanib, respublikamiz tijorat banklarida muddati o'tgan kreditlarni boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari yuzasidan izlanishlar olib borilishini doimo dolzarb deb hisoblaymiz

Bugungi kun zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi jarayonida banklar va bank xizmatidan foydalanuvchi mijozlar o'rtasidagi masofani sezilarli darajada kamaytirishi, banklar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirishi va shu bilan birga bank xizmatlarining miqdoriy va sifat jihatidan rivojlanib borishiga hissa qo'shib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining samaradorligini oshirish iqtisodiyotning real sektorini kreditlashda banklarning faol ishtirok etishi bilan bog'liqdir. Ammo, mamlakatimiz tijorat banklari kreditlash faoliyatini olib borishda bir qancha qiyinchilik va muammolarga duch kelmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda tijorat banklarining daromad keltiruvchi aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kreditlar orasida muammoli aktivlarning mavjudligi sezilarli bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «muammoli kreditlarni qaytarish banklarning imkoniyatlarini yanada kengaytirishini, ularni undirish bo'yicha banklar, qarzdor korxonalar, kompaniya va uyushmalar, hududlar rahbarlari birgalikda ish olib borishi zarurligi lozim». Kredit portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o'sishining mo'tadil darajasiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro miqyosda amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berilgan. Turli ilmiy manbalarda "tijorat banklari kredit portfeli" tushunchasi bank tizimi faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni anglatadigan asosiy tushunchalardan biriga aylanib qoldi. Uning tez orada ommalashib ketishiga sabab shundaki, "kredit portfeli" tijorat banklarining kredit bilan bog'liq butun faoliyatida hal qiluvchi o'rin tutadi. "Kredit portfeli" tijorat banklarining kredit berish imkoniyatlarini ko'rsatadigan omillardandir. Ilmiy adabiyotlarda muammoli kreditlar bo'yicha turli xilma-xil ta'riflar berilgan. Ayrim adabiyotlarda, muammoli kredit deganda ob'ekti, sub'ekti va ta'minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo'lgan kredit tushunilsa^[8], ayrim adabiyotlarda muammoli kreditlar deganda, —qarz oluvchi bir yoki bir necha to'lovlarini amalga oshirmaganligi yoki kredit ta'minoti qiyamatining pasayishi kreditni muammoli kreditlar turkumiga o'tishini anglatadi deya ta'rif berilgan. Tijorat banklarida muddati o'tgan kreditlar bilan ishslash va ularning portfelini boshqarish samaradorligini oshirish masalalari bir qator xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan va kredit portfeli tushunchasini uning mohiyatiga berilgan ta'riflarda ifodalangan. Masalan amerikalik iqtisodchilar Kris J. Barlton, Diana Mak Noton kredit portfeli - bu kreditlarni turkumlashni o'z ichiga oladi deb ta'riflashadi. O'z o'rnida, bank



sektorining ichki va tashqi ish faoliyatlari ITlarning rivojlanishi bilan yanada rivojlanib bormoqda va bu eng katta ta'sir qilgan soha sifatida bank tizimini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, N. Sokolinskaya —kredit portfeli qisqa va uzoq muddatli kreditlar yig'indisidan iboratl deb ta'riflaydi va muammoli kreditlarni boshqarish masalasiga alohida to'xtalib o'tadi. Bu ta'rifda asosiy e'tibor kreditning muddatiga qaratilgan bu holat kredit holatini va mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Chunki, bank tomonidan berilgan kreditlarning muddatini belgilab qo'yilishi va unga rioya qilinishi faqat kredit klassifikatsiyasi sifatini aniqlashda muhim omil bo'lishi mumkin.

Tijorat banklarida kredit portfeli samarali boshqarish muhim vazifalardan biridir. Bank kredit portfeli boshqarish tizimi faoliyatining zamirida to'rt asosiy tamoyil turadi: Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida» gi talablari doirasida bank kreditlari asosiy mezonlar bo'yicha muntazam ravishda baholanadi; Ikkinchidan, bank tomonidan ajratilayotgan kreditlarning ta'minlanishi ustidan nazoratni amalga oshirish. Bunda shuni hisobga olish zarurki, ta'minot kredit berilayotganda uni so'ndirishning bosh manbai hisoblanmaydi. Bank ta'minotdan kredit so'ndirilmasligi risklarini kamaytirish maqsadida foydalanadi, xolos. Uchinchidan, kredit monitoringini amalga oshirish. Kredit portfeli monitoringi quyidagilarni nazarda tutadi: a) kreditni monitoring qilish; b) kredit portfeli monitoring qilish. Hozirgi paytda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlar hajmi oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy monitoring olib borishni talab etmoqda. To'rtinchidan, kredit portfeli auditdan o'tkazish va kredit risklarini boshqarish. Kredit portfeli ichki va tashqi auditorlar tomonidan audit tekshiruvidan o'tkaziladi.

Tijorat banklarining aktivlari – bu tijorat banklarining resurslarini joylashtirish va ulardan oqilona foydalanishni o'zida aks ettirgan buxgalteriya balansidan iborat. Mamlakatimizda tijorat banklarining buxgalteriya balansi 2 ta tarkibiy qismidan: passiv va aktivlardan iborat. Bank aktivlari balansning aktiv qismida olib boriladi. Odatda bank aktivlari aktiv operatsiyalar natijasida hosil bo'ladi. Tijorat banklari tomonidan o'z va jalb etilgan pul mablag'laridan ma'lum daromad olish va o'zining likvidligini ta'minlash maqsadida olib boradigan operatsiyalari aktiv operatsiyalar deyiladi.

Bugungi kunda ko'p davlatlar bank tizimida umidsiz qarzlarning ko'payishi muammosiga duch kelayotganligi sababli banklarning muammoli aktivlari bilan ishslash mexanizmini rivojlantirish masalalari dolzarbli ortib boraveradi. Shuning uchun kreditorlar, shu bilan birga kreditni undirish bo'yicha qiyinchilikni boshdan kechirayotgan qarzdor-mijoz qay tariqa yo'l tutmog'i kerak? - degan savolning paydo bo'lishi bejiz emas. Jahon tajribasi dalolat berishicha, shubhali va umidsiz qarzlar bilan tasniflanuvchi aktivlarning sifati ko'p hollarda bank tizmidagi barqarorlikning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi, shuningdek, sohani tashkil etuvchi asosiy banklari muammolari butun to'lov tizimining amal qilishiga va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchiga sezilarli darajada salbiy ta'sir etishi mumkin.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. Sharipova N. D., Asanova S. D. THE ROLE OF BANKS IN THE MODERN MONETARY SYSTEM //Procedia of Theoretical and Applied Sciences. – 2023. – T. 6. – C. 55-62.
2. Шарипова Н.Д., Чориев Я.А. СТРАХОВАНИЕ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ //International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management. -2023-T.2. - C. 92-99.



3. Sharipova N. D., Jurayev I. S. THEORETICAL FOUNDATIONS OF MONETARY POLICY// INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIONS IN ENGINEERING RESEARCH AND TECHNOLOGY. – 2023. -T. 10. -C. 171-173.
4. Sharipova N. D., Aliboyev L.Sh. THE IMPORTANCE OF ANTI-INFLATIONARY POLICY AND INFLATION TRADING IN UZBEKISTAN// INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT. -2023. -T. 10. -C. 92-94.
5. Коваленко Сергей Борисович, Швейкин Игорь Евгеньевич Кредитный портфель банка и его роль в предотвращении кредитного риска // Промышленность: экономика, управление, технологии. 2019. №1 (75). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kreditnyy-portfel-banka-i-ego-rol-v-predotvraschenii-kreditnogo-riska>.
6. Омонов А.А., Қоралиев Т.М “Пул ва банклар” Дарслик. Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2019 й. – 461 б.
7. Маликова Дилрабо Муминовна, Бурханов Искандар Шухратович КРЕДИТНЫЙ ПОРТФЕЛЬ БАНКОВ И МЕТОДЫ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ИМ // ЈМВМ. 2023. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kreditnyy-portfel-bankov-i-metody-effektivnogoupravleniya-im>.